

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 9 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL)	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI...	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI	65-68

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	139-144
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙИ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	171-176
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA)	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLIGIK BIRLIKRLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI	239-242
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Tўлаганова Гулчехра Захитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> АЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjaniyovich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	263-266
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOYIY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOIY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA)	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLIY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI	293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ	302-308
<i>Matajonova Gulnoza Karimovna</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHLATLARI	357-362
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIIYAVIIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

Received: 30 August 2024
Accepted: 5 September 2024
Published: 15 September 2024

Article / Original Paper

CRIMES RELATED TO THE TRANSPLANTATION OF HUMAN ORGANS AND TISSUES

Tosheva Maftuna Anvar kizi

Senior teacher of Academy of Labor and social relationship, PhD student of TSUL

Email: maftunaaslonova@gmail.com

Abstract. This article analyzes the social danger of crimes related to the transplantation of human organs and tissues. The author emphasizes that these crimes pose a threat to human life and health, weaken the legal system, and suggests reclassifying them as crimes related not to morality but to health-related relations.

Keywords: transplantation of human organs and/or tissues, trafficking in human organs and/or tissues, Criminal Code, human rights, moral relations, coercion, export.

INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR

Tosheva Maftuna Anvar qizi

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi, katta-o'qituvchisi, Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqola inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi bilan bog'liq jinoyatlarning ijtimoiy xavfini tahlil qiladi. Muallif bu jinoyatlarning inson hayoti va sog'lig'iga tahdid solishini, huquqiy tizimni zaiflashtirishini ta'kidlab, ushbu jinoyatlarni axloqiy emas, balki sog'liqni saqlash munosabatlariga taalluqli bo'lgan jinoyatlar sifatida qayta ko'rib chiqish zarurligini taklif qiladi.

Kalit so'zlar: inson a'zolari va (yoki) to'qimalari transplantatsiyasi, inson a'zolari va (yoki) to'qimalari savdosi, Jinoyat kodeksi, inson huquqlari, axloqiy munosabatlar, majburlash, olib chiqish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N35>

Kirish. Insonning hayoti bevosita uning sog'lig'iga bog'liq bo'lib, turli omillar tufayli sog'lig'i sezilarli darajada yomonlashishi mumkin. Hozirgi ekologik muammolar, iqtisodiy tangliklar va insonlarning turmush tarzidagi o'zgarishlar umuman olganda sog'likka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish zaruriyati paydo bo'ladi. Ba'zi hollarda, tug'ma nuqsonlar yoki baxtsiz hodisalar tufayli inson hayotini faqatgina boshqa shaxsning organlari yoki to'qimalarini transplantatsiya qilish orqali saqlab qolish mumkin bo'ladi.

Hozirda transplantatsiya ko'plab rivojlangan davlatlarda tibbiyotning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi ham bu borada istisno emas. So'nggi yillarda tibbiy amaliyotga yangi texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlar yuz berdi va bu yangiliklar O'zbekiston qonunchiligiga ham ta'sir

ko'rsatdi. Shu bilan birga, mamlakatda inson organlari va to'qimalarini transplantatsiya qilish bo'yicha huquqiy tartibga solish tizimi shakllandi va rivojlandi. Ammo, ushbu sohada ilg'or qonunchilik mavjud bo'lishiga qaramasdan, O'zbekistonda organ va to'qimalar transplantatsiyasi bilan bog'liq jinoyatchilikning o'sishi muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Maqolada inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi bilan bog'liq jinoyatlar, ularning ijtimoiy xavfi, va bu jinoyatlarning jamiyatga salbiy ta'siri yoritilgan. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar orqali jinoyat huquqi, tibbiyot huquqi, hamda inson huquqlari bo'yicha zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Muallif jinoyatlarni tahlil qilishda milliy va xalqaro huquqiy me'yorlar, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, xususan BMT tomonidan berilgan tavsiyalar va rezolyutsiyalarni hisobga olgan.

Maqolada foydalanilgan metodologiya huquqiy tahlil va yuridik konstruksiyalarni qo'llashga asoslangan. Maqola muallifi jinoyatlar obyekti va subyekti, obyektiv va subyektiv tomonlarini tahlil qilish orqali jinoyatlarni batafsil o'rganishga e'tibor qaratadi. Shuningdek, ushbu jinoyatlarni klassifikatsiya qilish, ularning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash va huquqiy tartibga solish usullarini ko'rib chiqishda ilmiy-nazariy yondashuvlardan foydalanilgan. Mazkur metodologiya orqali jinoyatlar turkumlarini aniq ajratish va ular bilan kurashishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan huquqiy tavsiyalar berilgan.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq, "Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas". Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi bilan bog'liq jinoyatlar ijtimoiy xavfliligi nuqtai nazaridan jamiyatda chuqur salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Ushbu jinoyatlar nafaqat individual shaxslar, balki kengroq ijtimoiy tuzilmalar, sog'liqni saqlash tizimi va jamiyatning axloqiy asoslariga ham jiddiy zarar yetkazadi. Xususan, mazkur jinoyatlar inson huquqlari va qadr-qimmatining buzilishiga olib keladi. Noqonuniy transplantatsiya jarayonlari, odatda, inson huquqlarining qo'pol buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. A'zolar va to'qimalarni majburiy yoki aldagan holda olib qo'yish, inson tanasiga nisbatan zo'ravonlik hisoblanadi va inson qadr-qimmatini toptashdir.

Davlat tibbiyot muassasalarida tanish-bilish, korrupsiya mavjudligi sababli inson organlari yoki to'qimalari transplantatsiyasi shartlarini yoki tartibini buzish, yoki ularning oldi-sotdisi ko'pincha tibbiyot muassasalari xodimlari bilan uyushgan holda sodir etiladi. Bu holat inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyalarga zid keladi. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson savdosiga qarshi kurash bo'yicha Global tashabbusi (UN.GIFT) noqonuniy organlar savdosi jinoyatining sodir etilishiga uch asosiy sabablarni turini ajratadi:

1. Shaxslar majburlangan yoki aldangan holda o'z organlarini topshirishga majbur bo'ladi.

2. Shaxslar moliyaviy sabablarga ko'ra organlarini oldirishga qaror qilganda va keyinchalik kelishilgan mukofotni olmaydilar.

3. Shaxslarning roziligisiz, ular ustida amalga oshirilayotgan go'yoki terapevtik aralashuvlar paytida organlari olib qo'yiladi [1].

Shuningdek, ushbu jinoyatlar ko'pincha jamiyatning himoyasiz qatlamlariga nisbatan sodir etiladi: kambag'allar, bolalar, yo'qsillar, va boshqa zaif guruhlar. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, noqonuniy organ savdosida donorlarning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlardagi qashshoqlikda yashayotgan odamlardir. Masalan,

Hindistondagi organ donorlarini tadqiq qilish natijalariga ko'ra, donorlarning 71 foizi qashshoqlik chegarasidan past darajada yashagan [2]. Bu insonlarning huquqlari bevosita tahdid ostida qoladi va ular jinoyatchilar tomonidan suiiste'mol qilinadi. Qashshoqlikda yashayotgan odamlar, shu jumladan qashshoq migrantlar, organ o'g'irligi qurboni bo'lish xavfi yuqori. Ushbu amaliyotning tavsifiga ko'ra, qurbonlar odatda ish izlayotgan va operatsiyalar uchun boshqa mamlakatga olib ketilgan, 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan erkaklar (garchi bu har doim ham shunday bo'lmasa-da) deb ta'riflanadi [3]. Bundan tashqari, noqonuniy transplantatsiya jarayonlari, odatda, tibbiy jihatdan xavfli bo'ladi. Transplantatsiya jarayonida qo'llaniladigan tibbiy usullar yoki asbob-uskunalar qonuniy standartlarga javob bermasligi mumkin, bu esa bemorlarning hayotiga va sog'lig'iga jiddiy tahdid tug'diradi. Jarrohlik aralashuvlarining noqonuniy sharoitlarda o'tkazilishi yuqori infeksiya xavfi va operatsiyadan keyingi asoratlar bilan bog'liq. Bunday holatlarda tibbiy xizmatlar noto'g'ri va professional bo'lmagani uchun o'lim holatlari yuqori bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, noqonuniy transplantatsiya operatsiyalari tibbiyot tizimiga bo'lgan ishonchni zaiflashtiradi. Bu, ayniqsa, tibbiyot xodimlarining noqonuniy faoliyatlarga jalb qilinishi yoki ularga ko'z yumilishi holatlarida kuchayadi. Natijada, odamlar qonuniy tibbiy xizmatlardan qochib, o'z sog'lig'ini noqonuniy yo'llar bilan saqlashga intiladi. Agar sog'liqni saqlash tizimi noqonuniy transplantatsiyalarning keng tarqalganligini e'tiborsiz qoldirsa, bu tizimning buzilishiga olib keladi. Sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi pasayadi, va bu jamiyatda kengroq sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin.

Inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy savdosi ko'pincha transmilliy uyushgan jinoyat guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu guruhlar noqonuniy transplantatsiya faoliyatini rivojlantiradi va kengaytiradi. Bu esa jamiyatda uyushgan jinoyatchilikning kuchayishiga olib keladi, qonuniy tartibni zaiflashtiradi va xalqaro xavfsizlikka tahdid soladi. Bundan tashqari, mazkur jinoyatlar qonun ustuvorligini buzadi va jamiyatda adolat tizimiga nisbatan ishonchni pasaytiradi. Noqonuniy transplantatsiya faoliyati korrupsiya va boshqa jinoiy faoliyatlar bilan birga sodir etilishi mumkin, bu esa jamiyatda jinoiy muhitni kuchaytiradi.

Shuni e'tirof etish kerakki, inson tanasi va organlari savdo vositasi sifatida ko'rilishi inson qadr-qimmatini toptashdir. Bu axloqiy me'yorlarning buzilishi jamiyatda kengroq axloqiy tanazzulga olib kelishi mumkin. Shuningdek, inson a'zolari va to'qimalari transplantatsiyaga aloqador jinoyatlar jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi. Bu turdagi jinoyatlar jamiyatda adolatsizlik tuyg'usini oshiradi va ijtimoiy notinchlikni keltirib chiqaradi. Bemorlar va ularning oila a'zolari, shuningdek, jinoiy guruhlar faoliyatidan zarar ko'rgan shaxslar orasida ijtimoiy beqarorlik kuchayadi. Organlar savdosi ko'pincha inson savdosi bilan bog'liq. Zaif va himoyasiz guruhlar noqonuniy organ savdosi qurboniga aylanishi mumkin. Inson savdosi global miqyosda jiddiy muammoga aylanadi va bu jinoyatlar ko'pincha boshqa jinoiy faoliyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Jinoyat kodeksida mustahkamlangan ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar mamlakatda korrupsiyaga turtki beradi, chunki noqonuniy transplantatsiya operatsiyalari ko'pincha korrupsiyalashgan amaldorlar yoki tibbiyot xodimlarining yordami bilan amalga oshiriladi. Korrupsiya huquqiy tizimning samaradorligini pasaytiradi va jinoyatchilarni javobgarlikdan qochishiga imkon beradi. Noqonuniy transplantatsiya bilan bog'liq jinoyatlar huquqiy tizimni zaiflashtiradi, chunki bu jinoyatlar ko'pincha davlatning huquqiy va ijro etuvchi organlari

tomonidan yetarlicha nazorat qilinmaydi. Bu esa jamiyatda adolat tizimiga bo'lgan ishonchni yo'qotadi.

Natijalar. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra, inson a'zolari va to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish bilan bog'liq bir qancha jinoyatlar bor. Jumladan: (115¹-modda) Insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash, (133-modda) Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish, (133¹-modda) Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi hamda (133²-modda) Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish jinoyatlarini keltirishimiz mumkin. Mazkur jinoyatlar bir-biridan jinoyatni sodir etish usuli, jinoyat sodir etishgan ko'zlangan maqdasga ko'ra farq qiladi. Mazkur moddalardagi jinoyatlarni bir-biridan farqlashda quyidagi asosiy xususiyatlarga e'tibor qaratish kerak:

1. Jinoyat kodeksi 115¹-moddasi "Insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash" jinoyati insonni transplantatsiya uchun o'z a'zolarini yoki to'qimalarini berishga rozilik berishga majburlash bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, 911.05.2022 yildagi O'RQ-768-son) Tirik donorni undan a'zosini va (yoki) to'qimalarini olish uchun rozilik berishga majburlash taqiqlanadi. Bu majburlash zo'ravonlik, tahdid, aldov yoki boshqa majburiy choralar orqali amalga oshiriladi. Ko'rilyotgan jinoyatning xususiyatlari:

- Qilmishda majburlash elementi mavjudligi;
- Shaxsning erkin qaror qabul qilish huquqiga tahdid solinishi;
- Ushbu jinoyatda transplantatsiya uchun rozilikning majburiy ravishda olinishi

asosiy e'tiborda bo'ladi.

Rustambaev M.X. mazkur **jinoiatning obyekti** – tirik donorning hayoti va sog'lig'i, shuningdek, inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir [4; B-114].

Jinoyat **obyektiv tomondan** zo'rlik ishlatilib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib inson organlari yoki to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilikni majburlab olish orqali amalga oshiriladi. Jinoyatning obyektiv tomoni organlar va (yoki) inson to'qimalarini transplantatsiya qilish uchun olishga majburlash, bu jarayonda jismoniy zo'ravonlik qo'llanilishi yoki uni qo'llash bilan tahdid qilinishi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, jinoyatning obyektiv tomoniga qilmish va uni amalga oshirish usuli kiradi [5; B-102].

Ta'kidlash kerakki, jinoyat majburlashning turli shakllaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jumladan:

- *Zo'ravonlik va tahdid ishlatish:* Jinoyatchilar shaxsni zo'ravonlik ishlatish yoki uni o'ldirish, tan jarohati yetkazish kabi tahdidlar bilan qo'rqitib, transplantatsiya uchun uning a'zolarini yoki to'qimalarini olishga rozilik berishga majbur qilishi mumkin. Bu holatlarda shaxsning roziligi majburiy holatda berilgan bo'ladi va u haqiqiy ixtiyoriy rozilik hisoblanmaydi.

- *Aldov va hiyla:* Ba'zi holatlarda, jinoyatchilar shaxsni aldash yo'li bilan ham rozilik olishlari mumkin. Masalan, shaxsga transplantatsiya jarayoni haqida noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlar beriladi, yoki jarayonning xavfsizligi va oqibatlari haqida yolg'on

gapiriladi. Natijada, shaxs noaniq yoki noto'g'ri ma'lumotlar asosida rozilik berishga majbur bo'ladi.

- *Ijtimoiy yoki iqtisodiy bosim:* Shaxs qashshoqlik, qarzдорlik yoki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tufayli o'z a'zolarini transplantatsiya uchun berishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holatlarda shaxs majburan rozi bo'ladi, chunki boshqa yo'lni tanlash imkoniyati yo'q.

Otajonov A.A. jinoyat **subyektiv tomondan** faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi [6; B-126] deb tushuntiradi. Bunda shaxs boshqa bir shaxsning a'zolari yoki to'qimalarini transplantatsiya qilish uchun olishga majbur qilish ijtimoiy xavfli qilmish ekanligini biladi va buni xohlaydi. Jinoyatning **subyektiv** esa har qanday aqli raso 16 yoshga to'lgan shaxsdir. Rustambayev M.X. jinoyatning subyektivini tushuntirib, faoliyat turi va kasbiy tayyorgarligidan qat'i nazar aqli raso 16 yoshga to'lgan shaxs [7; B-117] deya ta'kidlaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133-moddasida "Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish" jinoyati mustahkamlangan bo'lib, ushbu jinoyat inson a'zolari yoki to'qimalarining qonuniy transplantatsiyasiga oid belgilangan shartlar yoki tartib-qoidalarini buzish bilan bog'liqdir. JK 133-moddasi "Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish" jinoyati O'zbekiston Respublikasining "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, 911.05.2022 yildagi O'RQ-768-son) transplantatsiya jarayonida belgilangan shartlar yoki tartib-qoidalarini buzishni o'z ichiga oladi. Bu buzilish tibbiyot muassasasi yoki transplantatsiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu jinoyatni asosiy xususiyatlari:

- Transplantatsiya jarayonidagi o'rnatilgan qonuniy tartiblarni buzilishi mavjudligi;
- Bu jinoyatda shart va tartiblar aniq belgilangan bo'lsa-da, ularning qasddan buzilishi;
- Qonuniy asosga ega bo'lgan transplantatsiya jarayonida noto'g'ri amallar amalga oshirilishi yoki belgilangan me'yorlarga rioya qilinmasligi e'tiborda bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan Qonunning 9-moddasida inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi shartlari o'rnatilgan bo'lib, unga ko'ra "Tirik donordan yoki inson murdasidan a'zolari va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya qilish faqat boshqa jarrohlik amaliyotlari yoki muolajalar retsipiylent hayotini saqlab qolishni yoxud uning sog'lig'i tiklanishini kafolatlay olmagan taqdirda qo'llanilishi mumkin. Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini retsipiylentlarga transplantatsiya qilish inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi" [8]. Bundan tashqari, Qonunning 10-moddasiga muvofiq, inson a'zolari yoki to'qimalarining transplantatsiyasi faqat retsipiylentning yozma roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunda retsipiylent kelajakda amalga oshiriladigan jarrohlik operatsiyasi yoki tibbiy muolaja natijasida sog'lig'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar haqida imzo qo'ydirilib ogohlantirilishi shart. Bu jarayon majburiy ravishda videoyozuvga qayd qilinishi kerak. Agar retsipiylent 18 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki qonuniy tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa yoki o'zi rozilik bera olmasa, transplantatsiya uchun uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakilining yozma roziligi talab qilinadi.

Shuningdek, tirik donordan a'zolar yoki to'qimalarni transplantatsiya uchun olish faqat retsiptiyentning sog'lig'ini saqlash maqsadida va marhumdan olish imkoniyati yo'qligida yoki muqobil davolash usullari mavjud bo'lmaganda amalga oshirilishi mumkin. Tirik donordan rozilik majburan olinishi taqiqlanadi. Juft organlardan biri yoki a'zoning bir qismi, shuningdek, to'qima transplantatsiya uchun olinishi mumkin, lekin bu jarayon faqat tibbiy sharoitlar to'liq tekshirilgan va donorning sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazilmasligi kafolatlangan taqdirda amalga oshiriladi. Donor o'z a'zolarini yoki to'qimalarini olish jarayoni va mumkin bo'lgan asoratlar haqida kamida 30 kun oldin yozma shaklda ogohlantirilishi va bu jarayon videoyozuvga qayd qilinishi kerak. Donor roziligini erkin, bepul va notarial tasdiqlangan yozma shaklda bildirishga haqli, shuningdek, har taraflama tibbiy tekshiruvdan o'tgandan so'ng transplantatsiya uchun mos kelishi tasdiqlangan bo'lishi kerak. Tirik donorni to'liq tibbiy tekshiruvdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ko'rilayotgan **jinoyatning obyekti** – jamiyatning normal axloqiy asoslarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabtlar hamda inson a'zolari va to'qimalarini o'tkazish va transplantatsiyasi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardir.

Tahlil etilayotgan jinoyatning **obyektiv tomoni** quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) inson a'zolari yoki to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish; 2) vafot etgan odamning a'zolarini yoki to'qimalarini u tirikligida uning roziligini olmay turib, ilmiy yoki ta'lim maqsadlarida buzilmaydigan holda saqlash (konservatsiya) uchun olish [9; B-245]. Jinoyat **subyektiv tomondan** to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Ta'kidlash kerakki, jinoyatning motivi jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi. Jinoyat **subyektiv** o'n olti yoshga to'lgan har qanday jismoniy shaxsdir.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi donorlikka doir cheklovlarni belgilaydi. Unga ko'ra, agar tirik donor yoki marhum O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan kasalliklar ro'yxatiga kiruvchi, transplantatsiyaga qarshi ko'rsatma bo'lgan kasallik bilan og'rikan yoki ilgari bunday kasallikka chalingan bo'lsa, unda bu shaxsdan inson a'zolari yoki to'qimalarini olishga ruxsat berilmaydi. Shuningdek, quyidagi shaxslardan inson a'zolari yoki to'qimalarini olish taqiqlanadi:

- 18 yoshga to'lmagan shaxslar (suyak iligini transplantatsiya qilish hollaridan tashqari);
- Qonuniy tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganlar va ruhiy kasallikka chalingan shaxslar;
- Qamoqda yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar;
- I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;
- Homilador ayollar;
- Shaxsi aniqlanmagan shaxslar;
- Doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar;
- "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashovchilar;
- Ilgari a'zolari yoki to'qimalari transplantatsiya uchun olingan shaxslar.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi chet davlat fuqarosi bo'lgan retsiptiyent uchun donor bo'lishi mumkin emas.

3. Jinoyat kodeksining 133¹-moddasi "Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi" jinoyati inson a'zolari yoki to'qimalarining savdosi yoki tijorat maqsadida olib sotilishiga tegishli. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, inson a'zolari va

to'qimalari oldi-sotdi shartnomasi predmeti bo'la olmaydi. Shuningdek, "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi qonunning 15-moddasi 1-qismiga muvofiq, inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya qilishda jismoniy hamda yuridik shaxslarga inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi taqiqlanadi. Inson a'zolari va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi jinoyatida organlar yoki to'qimalar noqonuniy ravishda pul yoki boshqa moddiy manfaatlar evaziga sotiladi yoki sotib olinadi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

- ❖ Qilmishda tijorat maqsadida organlar yoki to'qimalarning oldi-sotdisi amalga oshiriladi;

- ❖ Ushbu jinoyat pul yoki boshqa moddiy manfaat evaziga a'zolari sotish yoki sotib olish bilan bog'liq bo'ladi;

- ❖ Jinoyat iqtisodiy motivlarda sodir etiladi.

Jinoyatning **obyekti** – donor shaxsning hayoti va sog'lig'ining xavfsizligini ta'minlovchi hamda jamiyatda axloqiy munosabatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyat **obyektiv tomondan** inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini sotib olish yoki sotishda ifodalanadi. **Subyektiv tomondan** jinoyat qasd bilan amalga oshiriladi. Qilmish qasdning ham to'g'ri ham egri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

Takidlash kerakki, 30.08.2002 yildagi 402-II-son O'zbekiston Respublikasining "Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida" Qonunning 8-moddasiga asosan, "Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirish bepul va pulli asosda amalga oshirilishi mumkin" [10] deya mustahkamlangan.

Taova L.Yu., Gelyaxova L.A.ning fikriga ko'ra, quyidagi qilmishlar uchun javobgarlikni joriy etish zarur: inson organlari va (yoki) to'qimalarini noqonuniy saqlash, tashish, o'tkazish, olish, olib kirish va olib chiqish, shuningdek, ularni sotish. Ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilashda eng maqbul shakl inson organlari va to'qimalarining noqonuniy aylanishini tartibga soluvchi yagona norma joriy etilishi [11; B-142] to'g'risidagi taklifni ilgari suradi.

4. Jinoyat kodeksi 133²-moddasida nazarda tutilgan jinoyat "Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish". Bu jinoyat O'zbekiston qonunlarini buzib, organlar yoki to'qimalarni davlat chegarasidan tashqariga olib chiqishni o'z ichiga oladi. Mazkur jinoyat quyidagi asosiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

1. Qonuniy ruxsatlarsiz transplantatsiya maqsadida inson organlari yoki to'qimalarini mamlakat hududidan olib chiqish;

2. Maxsus ruxsatnoma va hujjatlarning yo'qligi;

3. Transmilliy jinoyatchilik belgilarining mavjudligi;

4. Xalqaro hamkorlikning zarurligi.

Ushbu jinoyatning **bevosita obyekti** – inson a'zolari va to'qimalarini transplantatsiya qilish bilan bog'liq hamda O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketmaslikni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyat **obyektiv tomondan** transplantatsiya qilinadigan inson organlari va (yoki) to'qimalarining O'zbekiston hududidan tashqariga olib chiqish harakatlarida ifodalanadi. Jinoyat **subyektiv tomondan** faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Shaxs o'zining harakatlarida mazkur jinoyatning belgilari borligini biladi va buni xohlab harakat qiladi. Jinoyatning **subyeksi** aqli raso o'n olti yoshga to'lgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

Yuqoridagi jinoyatlarni farqlashda e'tibor qaratiladigan umumiy xususiyatlardan biri jinoyatning maqsadi va motivi: jinoyatning tijorat maqsadida amalga oshirilganligi yoki majburlash elementi mavjudligi yoki qonuniy tartib va shartlarni buzish asosiy ajratib turuvchi xususiyatlardir. Shuningdek, jinoyatning amalga oshirish usuli (majburlash, savdo, qonuniy tartiblarni buzish, yoki noqonuniy olib chiqish usullari) jinoyatni boshqa turlaridan farqlashga yordam beradi.

BMTning "Resolution 25/1" hujjati inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy savdosini oldini olish uchun qator choralarga e'tibor qaratadi. Quyida ushbu asosiy choralar va tavsiyalar keltirilgan:

1. Inson a'zolarining noqonuniy savdosiga qarshi qonunchilikni qayta ko'rib chiqish, yangi qonunlar ishlab chiqish yoki mavjudlarini o'zgartirish. Noqonuniy savdo, vositachilik, xarid va boshqa noqonuniy tranzaksiyalar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish.

2. Transplantatsiya bilan shug'ullanuvchi tibbiy muassasalar va mutaxassislarni yanada qat'iy nazorat qilish.

3. Huquqni muhofaza qilish organlari, chegara xodimlari va tibbiyot mutaxassislari organ savdosi va organlarni noqonuniy olish maqsadida odam savdosini aniqlash bo'yicha o'qitish.

4. Jamoatchilikni, potentsial donorlarni va himoyasiz guruhlarni organ savdosi xavflari va transplantatsiya huquqlari haqida xabardor qilish uchun kampaniyalar o'tkazish.

5. A'zo davlatlarni organ savdosi va odam savdosi jinoyatlari bilan kurashish bo'yicha tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni almashishga rag'batlantirish.

6. Ushbu jinoyatlar bilan kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

7. Organ savdosi va odam savdosining ko'lami va hajmini tushunish uchun ishonchli ma'lumotlarni yig'ish va tadqiqotlar o'tkazish.

8. A'zo davlatlarga organ savdosi va odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha texnik yordam ko'rsatish va milliy salohiyatni oshirish.

9. Qonunchilik, ma'muriy va nazorat bo'yicha qo'llanmalarni ishlab chiqish uchun a'zo davlatlar bilan hamkorlikda fikr almashish [12].

Yuqoridagi qilmishlarni o'rgangan holda aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133¹-moddasi (Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi) hamda 133²-moddasi (Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish) jinoyatlarining bevosita obyekti – jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar emas, balki inson hayoti va sog'lig'ining xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Chunki, bunday harakatlar natijasida, avvalo, insonning hayoti va sog'lig'i xavf ostida qoladi, insonlar jismoniy zarar ko'rishi, sog'lig'idan judo bo'lishi yoki hayotini yo'qotishi mumkin. Ikkinchi navbatda esa, yuqoridagi axloqiy munosabatlarga zarar yetadi. Shu sababli, bu jinoyatlar axloqiy me'yorlarga qaraganda ko'proq inson hayoti va sog'lig'ining xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga taalluqli hisoblanadi. Bu qilmishlar nafaqat axloqiy buzilishlarni keltirib chiqaradi, balki insonning asosiy huquqlari — hayoti va sog'lig'ini saqlash huquqini to'g'ridan-to'g'ri buzadi, shu sababdan jinoyatning obyekti sifatida axloqiy munosabatlardan ko'ra sog'liqni saqlash munosabatlari belgilangan. Shunday ekan, ijtimoiy axloqni tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar sanab o'tilgan jinoyatlarning asosiy bevosita obyekti emas, qo'shimcha bevosita obyekti deyish mumkin. Asosiy bevosita obyekt esa –

insonning hayoti va sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Shuning uchun mazkur jinoyatlarni Jinoyat kodeksining "Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar" bobidan chiqarilib, tegishli bobga o'tkazilishi lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytish kerakki, mazkur maqolada inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi bilan bog'liq jinoyatlar ijtimoiy xavfli qilmishlar ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu jinoyatlar inson huquqlarini buzadi, hayoti va sog'lig'iga tahdid soladi va shu sababli jamiyatda jiddiy salbiy oqibatlar olib keladi. Maqolada transplantatsiya jarayonidagi qonunbuzarliklar, organlar va to'qimalar savdosi va ularning jamiyatga salbiy ta'siri, jumladan, korrupsiya va huquqiy tizimning zaiflashuvi haqida so'z yuritildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133¹-moddasi (Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi) va 133²-moddasi (Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish) jinoyatlarining bevosita obyekti tahlil qilinib, ushbu jinoyatlarning axloqiy munosabatlardan ko'ra, inson hayoti va sog'lig'ining xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga ko'proq taalluqli ekanligini ta'kidlandi. Chunki, bunday harakatlar avvalo insonning hayoti va sog'lig'iga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli, bu jinoyatlar asosiy bevosita obyekt sifatida inson hayoti va sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi, axloqiy munosabatlar esa qo'shimcha bevosita obyekt hisoblanadi.

Maqolada, shuningdek, ushbu jinoyatlarni Jinoyat kodeksining "Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar" bobidan chiqarib, tegishli bobga o'tkazish zarurligi haqida xulosa qilinadi. Bu o'zgarishlar yuqoridagi qilmishlar bilan bog'liq jinoyatlar uchun yanada aniqroq va tegishli huquqiy me'yorlarni qo'llash hamda ularga to'g'ri jinoiy jazo va boshqa huquqiy choralarni tayinlash orqali jamiyatda sog'liqni saqlash tizimini va inson hayoti va sog'lig'ini himoya qilishga ko'maklashishi mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. <https://www.drze.de/en/research-publications/in-focus/organ-transplantation/modules/organ-trade>
2. Shimazono, Yosuke (2007). ["The State of the International Organ Trade: A Provisional Picture Based on Integration of Available Information"](#) Bulletin of the World Health Organization.
3. Jafar, Tazeen H. (2009). ["Organ Trafficking: Global Solutions for a Global Problem"](#). American Journal of Kidney Diseases. doi:10.1053/j.ajkd.2009.08.014
4. Rustambaev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus qism 2-tom / M.Rustambaev. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2024. B-114.
5. Т.А.Фабрика. К вопросу об объективной стороне принуждения к изъятию органов или тканей человека для трансплантации. Вестник Челябинского государственного университета. 2012. № 1 (255). Право. Вып. 31. С-102
6. А.А.Отанов Шохсга қарши жиноятлар: О'қув қўлланма / Абдоржон Анварович Отанов. –Т.: TDYU nashriyoti, 2024. B- 126.
7. Rustambaev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus qism 2-tom / M.Rustambaev. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2024. B-117.
8. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6001286>
9. А.А.Отанов Шохсга қарши жиноятлар: О'қув қўлланма / Абдоржон Анварович Отанов. –Т.: TDYU nashriyoti, 2024. B-245
10. <https://www.lex.uz/uz/docs/-46727>

11. Таова Л.Ю., Геляхова Л.А. К вопросу о противодействии преступлениям в сфере трансплантации органов и тканей человека // Социально-политические науки. 2020. Т. 10. № 3. С–142.
12. DOI: 10.33693/2223-0092- 2020-10-3-138-142
13. Resolution 25/1. Preventing and combating trafficking in human organs and trafficking in persons for the purpose of organ removal. The Commission on Crime Prevention and Criminal Justice

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).